



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH  
VAZIRLIGI  
TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI**

F.L.Azizova

A.A.Imamov

**2-band.**O'rnatilgan tartibda ko'rib chiqib,nazoratga olgan holda qisqa muddat  
ichida berilgan topshiriqlar ijrosini taminlashingizni so'rayman

F.L.Azizova

A.A.Imamov

**4-band.**Ijro uchun

*Muddat: 10 May 2024*

**№04-02/-81**

23 Aprel 2024

**Sh.A.Boymuradov**

Проректор





## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRINING BUYRUG'I

20 24yil “22” aprel

№ 130

Toshkent sh.

### **Tibbiyat oliy ta'lif muassasalarining bitiruvchilarini magistratura va klinik ordinatura ta'lif dasturlari asosida yetakchi xorijiy oliy ta'lif muassasalari va markazlarida o'qitish uchun nomzodlarni saralash chora-tadbirlari haqida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sog'liqni saqlash sohasida islohotlarni chuqurlashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” 2024-yil 22-yanvardagi PQ-38-son qarori ijrosi hamda hududlarda tor sohadagi mutaxassislarga bo'lgan ehtiyojdan kelib chiqib, tibbiyat oliy ta'lif muassasalarining 200 nafar bitiruvchisini magistratura va klinik ordinatura dasturlari asosida yetakchi xorijiy oliy ta'lif va markazlarida o'qitish maqsadida buyuraman:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 22-yanvardagi “Sog'liqni saqlash sohasida islohotlarni chuqurlashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-38-son qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. 2024-yilning aprel oyida tibbiyat oliy ta'lif muassasalarining 200 nafar bitiruvchisini magistratura va klinik ordinatura dasturlari asosida yetakchi xorijiy oliy ta'lif va markazlarida o'qitishga yuborish uchun tanlov e'lon qilinsin.

3. Tibbiyat oliy ta'lif muassasalarining 200 nafar bitiruvchisini magistratura va klinik ordinatura dasturlari asosida yetakchi xorijiy oliy ta'lif va markazlarida o'qitishga yuborish bo'yicha nomzodlarni saralash uchun tanlov mezonlari 1-ilovaga;

tanlovn o'tkazish tartibi 2-ilovaga;

tanlov komissiyasi tarkibi 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. **Tibbiyat oliy ta'lif muassasalari va ularning filiallari rahbarlari** zimmasiga nomzodlarning tanlovda ishtirok etishi uchun yuborgan ma'lumotlarini to'plash, to'plangan ballarga muvofiq nomzodlar ketma-ketligi ta'minlangan ro'yxatni shakllantirsin va 2024-yilning 10-may kuniga qadar Sog'liqni saqlash

vazirligining Fan-ta'lim va innovatsiyalar boshqarmasiga taqdim etish vazifasi yuklansin.

tanlov jarayonini ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritilishini ta'minlasin.

**2. Fan-ta'lim va innovatsiyalar boshqarmasi** (O.Ismailov) 2024-yil 20-may kuni shaffofligi ta'minlangan tanlov ishtirokchilari orasidan yuqori ball to'plagan bitiruvchilar ro'yxatini shakllantirsin va reja-grafikni ishlab chiqsin;

tegishli hujjatlarni Tibbiyotni rivojlantirish davlat maqsadli jamg'armasining Kuzatuv kengashiga ko'rib chiqish va qaror chiqarish uchun taqdim etsin.

**6. Tashkiliy-kadrlar va inson resurslarini rivojlantirish boshqarmasi** (M.Mirtalipov) Sog'liqni saqlash vazirligi bilan magistratura va klinik ordinatura ta'lim dasturlari bo'yicha bitiruvchilarning xorijda ta'lim olishi uchun bitiruvchi bilan shartnomaga amalga oshirsin;

ushbu shartnomada magistratura va klinik ordinatura ta'lim dasturlari bo'yicha ta'lim olgan bitiruvchilarga muddat mobaynida davlat tibbiyot tashkilotlarda uzlusiz ishlab berish majburiyatini yuklatsin;

bitiruvchilar bilan tuzilgan shartnomalarni (kontraktlarni) Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan belgilangan tartibda to'ldirish va kelgusida ro'yxatga olinishi hamda ijro etilishi uchun ko'rsatilgan talablar va muddatlarga muvofiq vazirlikka taqdim etilishini ta'minlasin.

**7. Jamg'armalar faoliyatini muvofiqlashtirish bo'limi (Direksiya)** (A.Xasanov) tibbiyot oliy ta'lim muassasalarining 200 nafar bitiruvchisini magistratura va klinik ordinatura dasturlari asosida yetakchi xorijiy oliy ta'lim muassasalari va markazlarida o'qitish mablag'larini Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi Tibbiyotni rivojlantirish davlat maqsadli jamg'armasi mablag'lari hisobidan amalga oshirish choralarini ko'rsin.

**8. Mazkur buyruq bilan berilgan topshiriqlar bajarilishini nazorati vazirning birinchi o'rinnbosari v.b. D.Sultanovga yuklansin.**

Vazir v.b.



A.Xudayarov

Sog'liqni saqlash vazirining  
2024-yil 22 04 dagi  
130 - son buyrug'iga  
1-ilova

**Tibbiyot oliy ta'lif muassasalarining 200 nafar bitiruvchisini magistratura va klinik ordinatura ta'lif dasturlari asosida yetakchi xorijiy oliy ta'lif muassasalari va markazlarida o'qitishga yuborish bo'yicha**

### **TANLOV MEZONLARI**

#### **Birinchi bosqich**

No	TANLOV MEZONLARI	Ball
1.	Tibbiyot oliy ta'lif muassasalari bakalavriat bitiruvchisi	2
	Tibbiyot oliy ta'lif muassasalari qo'shma dasturi talabasi	1
2.	Ingliz tilini bilish darajasini belgilovchi xalqaro yoki milliy sertifikatga ega bo'lishi	2
	Ingliz tilini bilish darajasini belgilovchi xalqaro yoki milliy sertifikatga ega emas, biroq ingliz tilida mustaqil so'zlasha oladi	1
3.	Kompyuter texnikalaridan mukammal foydalana olishi (Microsoft Word, Excel, PowerPoint ko'nikmalariga ega bo'lishi)	2
	Kompyuter texnikalaridan minimal foydalana olishi (Microsoft Word ko'nikmasiga ega bo'lishi)	1
4.	Ilmiy ishlarda ishtirok etishi	2
	Tibbiy amaliy ishlarda ishtirok etishi	1
5.	Yo'nalishlar bo'yicha konferensiyalarda qatnashishi	2
	Yo'nalishlar bo'yicha tanlovlarda qatnashishi	1

#### **ESLATMA!**

Birinchi bosqich yakuni bo'yicha eng yuqori ball **15 ballni** tashkil etadi.

Ikkinchi bosqich — Komissiya suhbatiga birinchi bosqichdan 8 va undan yuqori ballni egallagan nomzodlarga ruxsat etiladi.

## **Ikkinci bosqich**

Suhbat davomida nomzodga 3 ta yo'nalish bo'ycha savol beriladi.

1. O'zbekiston tarixi va Tibbiyot tarixi to'g'risida

2. O'zbekiston sog'liqni saqlashning amaldagi tizimi va 2017-yildan keyingi olib borilayotgan islohotlar to'g'risida;

3. Xalqaro tibbiyot to'g'risida;

Har bir savolga ko'pi bilan 3 ball beriladi.

Ikkinci bosqich yakuni bo'yicha eng ko'p 9 ballni tashkil etadi.

Tanlov yakuni bo'yicha eng yuqori ball 24 ni tashkil etadi.

Tanlov yakuni bo'yicha to'plangan ballarning miqdoriga, ya'ni kamayib borishi tartibida ro'yxat shakllantiriladi.

Mazkur ro'yxatdagi dastlabki bitiruvchi magistratura va klinik ordinatura ta'lif dasturlari asosida xorijiy davlatlarining yetakchi oliy ta'lif muassasalari va markazlariga o'qishga yuboriladi.

Sog'liqni saqlash vazirining  
2024 yil 22 04 dagi  
130 - son buyrug'iga  
2-ilova

**Tibbiyot oliy ta'lif muassasalarining 200 nafar bitiruvchisini magistratura va klinik ordinatura ta'lif dasturlari asosida yetakchi xorijiy oliy ta'lif muassasalari va markazlarida o'qitishga yuborish bo'yicha**

**TANLOV O'TKAZISH TARTIBI**

1. Mazkur tartib tibbiyot oliy ta'lif muassasalarining bakalavriat va magistratura bitiruvchilarini magistratura va klinik ordinatura ta'lif dasturlari asosida xorijiy davlatlarining yetakchi oliy ta'lif muassasalari va markazlarida o'qitishga yuborish bo'yicha tanlov o'tkazishga qo'llaniladi.

2. Tanlov haqida vazirlilikning ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy kanallarida e'lon qilinadi

3. Tanlovda tibbiyot oliy ta'lif muassasasining, shu jumladan, qo'shma ta'lif dasturlarining a'lo o'qigan, ilmiy, tibbiy amaliy ishlarda ishtirok etgan, yo'nalishlar bo'yicha konferensiya (tanlov)larda qatnashgan, O'zbekiston tarixini va tibbiyot tarixini bilgan, davlat tilida va bitta xorijiy tilida so'zlasha oladigan bitiruvchilar ishtirok etishlari mumkin.

4. Tanlov nomzodlari hududlarda tor sohadagi mutaxassislarga bo'lgan ehtiyojdan shuningdek, oliy ta'lif yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatoriga muvofiq har yili tasdiqlanadigan tanlov yo'nalishlaridan kelib chiqib aniqlanadi.

5. Tanlov ikki bosqichda o'tkaziladi:

Birinchi bosqich – nomzodning ko'rsatkichlari bo'yicha (1-ilova) rasmiy hujjatlariiga ball qo'yish orqali belgilanadi.

Ikkinci bosqich –suhbat asosida tanlov o'tkaziladi.

6. Tanlov komissiyasining Ishchi organi (Tibbiyot oliy ta'lif muassasalari) tomonidan nomzodlarning ro'yxati shakllantirilib, birinchi bosqich yakunlari bilan (nomzodlarning taqdim etgan hujjatlari asosida) Tanlov komissiyasiga taqdim etadi.

7. Tanlovda ishtirok etish uchun nomzodlar mazkur tartibning 3-bandil talablariga mos bo'lgan taqdirda zarur hujjatlarni skaner shaklini Ishchi organiga taqdim etadi.

8. Tanlovda ishtirok etish uchun hujjatlarni taqdim etish muddati Ishchi organi tomonidan belgilanadi.

9. Tanlovning birinchi bosqichidan muvaffaqiyatli o'tgan nomzodlar ikkinchi bosqich (suhbat)ga tavsiya etiladi.

10. Ikkinci bosqich Ishchi organi tomonidan belgilagan muddatda o'tkaziladi. Bu haqida nomzodlar bir kun oldin ogohlantiriladi.

11. Ikkinchi bosqichni o'tkazish uchun Ishchi organi a'zolarining eng kamida 70 foiz qismi ishtirok etishi shart.

12. Tanlov yakuni bo'yicha to'plangan ballar qo'shib chiqiladi, eng yuqori ball olgan nomzodlar g'olib deb topiladi.

13. Tanlov yakuni bo'yicha bayonnomalar rasmiylashtiriladi hamda g'olib deb topilgan nomzodlar o'qishga tavsiya etiladi.

Sog'liqni saqlash vazirining  
2024 yil \_\_\_\_\_ dagi  
\_\_\_\_\_ - son buyrug'iga  
3-ilova

**Tibbiyot oliy ta'lif muassasalarining 200 nafar bitiruvchisini magistratura va klinik  
ordinatura ta'lif dasturlari asosida yetakchi xorijiy oliy ta'lif muassasalari va  
markazlarida o'qitishga yuborish bo'yicha  
TANLOV KOMISSIYASI TARKIBI**

No	F.I.Sh	Lavozimi
1.	<b>D.Sultanov</b>	- Vazirning birinchi o'rinnbosari v.b., komissiya raisi
2.	<b>M.Mirtalipov</b>	- Tashkiliy-kadrlar va inson resurslarini rivojlantirish boshqarmasi boshlig'i, komissiya raisi o'rinnbosari
3.	<b>O'.Ismailov</b>	- Fan-ta'lif va innovatsiyalar boshqarmasi boshlig'i, komissiya a'zosi
4.	<b>U.Gaziyeva</b>	- Tibbiy yordamni tashkillashtirish departamenti boshlig'i, komissiya a'zosi
5.	<b>M.Kuchkarova</b>	- Onalik va bolalikni muhofaza qilish boshqarma boshlig'ining o'rinnbosari, komissiya a'zosi
6.	<b>O.Safarov</b>	- Moliya-iqtisod boshqarmasi boshqarmasi, komissiya a'zosi
7.	<b>F.Raximqulov</b>	- Strategik rejalashtirish va axborot-tahlil boshqarmasi boshlig'ining o'rinnbosari, komissiya a'zosi
8.	<b>M.Mamirov</b>	- Xalqaro hamkorlik bo'limi boshlig'i, komissiya a'zosi
9.	<b>Sh.Mamajonov</b>	- Fan-ta'lif va innovatsiyalar boshqarmasi Malaka oshirish va qayta tayyorlash bo'limi boshlig'i, komissiya kotibi

**Тиббиёт олий таълим муассасаларининг битириувчиларини  
магистратура ва клиник ординатура таълим дастурлари асосида етакчи  
хорижий олий таълим муассасалари ва марказларида ўқитиш бўйича  
режа**

<b>№</b>	<b>Тиббиёт олий таълим муассасаси</b>	<b>Магистратура ва клиник ординатура таълим дастурлари асосида ўқишига юбориладиган битириувчилар сони</b>	<b>Хорижий давлат</b>
1.	Тошкент тиббиёт академияси	20	Россия
2.	Тошкент педиатрия тиббиёт институти	20	Россия
3.	Тошкент давлат стоматология институти	20	Россия
4.	Андижон давлат тиббиёт институти	20	Россия
5.	Бухоро давлат тиббиёт институти	20	Россия
6.	Самарқанд давлат тиббиёт университети	20	Россия
7.	Тошкент тиббиёт академияси Термиз филиали	20	Россия
8.	Тошкент тиббиёт академияси Урганч филиали	20	Россия
9.	Фарғона жамоат саломатлиги тиббиёт институти	20	Россия
10.	Қоракалпогистон тиббиёт институти	20	Россия

Тиббиёт олий таълим муассасаларининг 200 нафар битириувчисини магистратура ва клиник ординатура дастурлари асосида етакчи хорижий олий таълим муассасалари ва марказларида ўқитиш Соғликни саклаш вазирлиги ҳузуридаги Тиббиётни ривожлантириш давлат мақсадли жамғармасининг маблагларидан хисоблаб берилади.

**Фан-таълим ва инновациялар  
бошқармаси бошлиғи**

**У.Исмаилов**

**Россия миллий табиёт университетида клиник ординатурага ўқишига юборилалыган  
Мұхахесистарға сарфланадын хизмат сафари харажатлары**

**СМЕТАСИ**

Т/Р	Харажаттар түри	сони/микдори				Шундан молиялаштырылады		Маляка ошириши режалаштырылған мамлакат ва шахар номы
		күнши	күн ёки ой	мөйер	пул бирліги	Жами	2024/2025 ўкув йили	
1	Күнлик харажаттар*	200	606	16	АҚШ доллари	24 821 760 000	12 410 880 000	Россия Федерациясы, Москва шаҳри
2	Яшап харажатлары* (иккى йилдик), (ойлик)	200	10	50	АҚШ доллари	1 280 000 000	640 000 000	Россия Федерациясы, Москва шаҳри
3	Үкитиш харажати* (иккى йилдик)	200	x	520 000	Рубл	31 200 000 000	15 600 000 000	Россия Федерациясы, Москва шаҳри
4	Авиабилет ** (Бир марта бориши ва келини)	200	x	4 274 000	сўмла	854 800 000	427 400 000	Россия Федерациясы, Москва шаҳри (Тошкент-Москва-Тошкент)
<b>Жами</b>		<b>11</b>	<b>x</b>	<b>x</b>		<b>58 156 560 000</b>	<b>29 078 280 000</b>	<b>x</b>

\* - Күнлик яшап ва ўқитиш харажатларине қолықшамда ўқишида өткізгендегі күндардан келіп чиқып анықтап күрителиши мүмкін. Жамда ўқыс тағомындарынан түжілелар атаса ошириледі.

\*\* - Ақиаболегем нарихтарға қолықшамда харажатлародан келіп чиқып анықтап күрителиши мүмкін.

\*\*\* - Барча харажаттар түрінде күндардан Марказий банктың расмий курси бўйича атаса оширилади.